


2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun
Navoiy viloyatida qurilish ishlari


3 101,5
mlrd. so'm

100,1 %

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami **3 101,5 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari
hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlari tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 552 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **107,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **117,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **109,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,5 %**) o'sishidir.



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)


		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
	Navoiy viloyati	1425	1552	108,9
	Navoiy sh.	417	424	101,7
	Zarafshon sh.	107	129	120,6
	tumanlar:			
	Karmana	227	255	112,3
	Konimex	28	39	139,3
	Qiziltepa	196	229	116,8
	Navbahor	168	186	110,7
	Nurota	106	100	94,3
	Tomdi	34	38	111,8
	Uchquduq	51	54	105,9
	Xatirchi	91	98	107,7

**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,3 %), Karmana (16,4 %) va Qiziltepa (14,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **683,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **55,1 %** ga kam bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **6,2 %** punktga kamayib, **22,0 %** ni tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **78,3** % i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **2,6** % kamaygan), Navoiy shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,0** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,7** % kamaygan), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,4** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,5** % ko'paygan) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiylajmi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,3 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'satkichiga nisbatan **8,3 %** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **117,9 %** ni tashkil etgan holda **1 713,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,7 %** ni tashkil etdi yoki **704,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **90,9 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **689,3** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 412,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **22,2 %** va **77,8 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Navoiy viloyati	3 101,5	689,3	100,0	2 412,2	100,0
Navoiy sh.	711,5	138,9	20,2	572,6	23,7
Zarafshon sh.	753,5	481,7	69,9	271,8	11,3
tumanlar:					
Karmana	398,8	24,3	3,5	374,5	15,5
Konimex	51,8	3,0	0,4	48,8	2,0
Qiziltepa	447,4	3,3	0,5	444,1	18,4
Navbahor	225,3	2,3	0,3	223,0	9,3
Nurota	144,5	1,3	0,2	143,2	6,0
Tomdi	24,4	5,0	0,7	19,4	0,8
Uchquduq	38,1	6,2	0,9	31,9	1,3
Xatirchi	306,2	23,3	3,4	282,9	11,7

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,4 % i yoki **2 152,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

69,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **596,7** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 27,7 % ni tashkil etdi

27,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **973,8** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,2 % ni tashkil etdi.

45,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **581,7** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.


27,0 %



**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Navoiy viloyati	3 101,5	100,1	2 152,2
Navoiy sh.	711,5	100,0	703,1
Zarafshon sh.	753,5	100,0	162,7
tumanlar:			
Karmana	398,8	100,0	238,9
Konimex	51,8	100,2	21,5
Qiziltepa	447,4	100,0	440,8
Navbahor	225,3	100,0	198,4
Nurota	144,5	100,2	145,4
Tomdi	24,4	106,0	18,2
Uchquduq	38,1	100,1	38,0
Xatirchi	306,2	100,0	185,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **15,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,6 %** punktga ko`payib, **49,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga kamayib, **34,4 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **24,8 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,9 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **75,2 %** (**13,9 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **21,3 %** kamaydi va **15,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **5,4 %** ko'paydi.

ulushi, % da



2019- yil

yanvar-sentabr

2020- yil

yanvar-sentabr



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-sentabr oylarida**

mldr. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	3 101,5	2441,7	382,7	277,1
Navoiy sh.	711,5	563,7	60,4	87,4
Zarafshon sh.	753,5	623,1	93,6	36,8
tumanlar:				
Karmana	398,8	308,0	53,3	37,5
Konimex	51,8	36,2	11,1	4,5
Qiziltepa	447,4	315,1	74,0	58,3
Navbahor	225,3	201,1	10,3	13,9
Nurota	144,5	127,2	4,8	12,5
Tomdi	24,4	6,8	8,0	9,6
Uchquduq	38,1	22,8	9,3	6,0
Xatirchi	306,2	237,7	57,9	10,6

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




**Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiyligi hajmida eng yuqori ulush Navbahor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiyligi hajmining 89,3 % i yoki **201,1** mlrd. so'm), shuningdek, Nurota tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiyligi hajmining 88,0 % i yoki **127,2** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiyligi hajmining 82,7 % i yoki **623,1** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 32,8 % i yoki **8,0** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 24,4 % i yoki **9,3** mlrd. so'm), Konimex tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 21,4 % yoki **11,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 39,3 % i yoki **9,6** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 15,8 % i yoki **6,0** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 13,1 % i yoki **58,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining
eng yuqori hajm ko'rsatkichi Zarafshon sh.
(753,5 mldr. so'm), Navoiy shahar (711,5
mldr. so'm), Qiziltepa (447,4 mldr. so'm),
Karmana (398,8 mldr. so'm) viloyatiga
to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo`limi

Tel.: 71 202-84-46;
79 223-54-73